

**BOSHLANG'ICH SINIF "TARBIYA" DARSLARIDA INTERFAOL
METODLARDAN FOYDALANISHNING SHART- SHAROITLARI***G'ulomova Dilfuza Ikromjon qizi**Toshkent Kimyo xalqaro universiteti**Namangan filiali magistratura talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda boshlang'ich sinf "Tarbiya" darslarida interfaol metodlardan foydalanish sharoitlari tahlil qilinadi. Unda umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'lim tizimini tizimli isloh qilish, yosh avlodning ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlanishini ta'minlash, ta'lim jarayoniga innovatsion metodlarni joriy etish muhimligi yoritiladi. Shuningdek, pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayonida qo'llashning nazariy va uslubiy yondashuvlari ham ko'rib chiqiladi. Maqolada o'zbek va rus olimlarining pedagogik texnologiyalar bo'yicha ilmiy qarashlari tahlil qilinib, ularning dars samaradorligini oshirishdagi o'rni ta'kidlanadi. Loyihaviy ta'lim texnologiyalarining ahamiyatiga alohida e'tibor qaratilib, ushbu metodlar orqali o'quvchilarning shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirish va milliy-ma'naviy merosni chuqur anglashga erishish mumkinligi xulosasi chiqariladi.

Kalit so'zlar: tarbiya, interfaol metodlar, pedagogik texnologiyalar, boshlang'ich ta'lim, ma'naviy va intellektual rivojlanish, milliy qadriyatlar, loyihaviy ta'lim, innovatsion ta'lim, o'qitish metodikasi, madaniy meros.

Abstract: This article examines the conditions for using interactive methods in primary school "Upbringing" lessons in Uzbekistan. It highlights the importance of systematically reforming the general secondary and extracurricular education system, fostering the moral, ethical, and intellectual development of the younger generation, and incorporating innovative teaching methods. The study also explores the theoretical and methodological approaches to implementing pedagogical technologies in education. The work analyzes scientific perspectives from Uzbek and Russian scholars on pedagogical technologies, emphasizing their role in increasing lesson effectiveness. Special attention is given to the significance of project-based learning, which enhances students' personal abilities and deepens their understanding of cultural heritage. The research concludes that technological approaches in primary education can foster independent thinking, self-awareness, and motivation in students while preserving and promoting national and moral values.

Key words: upbringing, interactive methods, pedagogical technologies, primary education, moral and intellectual development, national values, project-based learning, educational innovation, teaching methodology, cultural heritage

O‘zbekiston Respublikasida umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma’naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish, o‘quv-tarbiya jarayoniga ta’limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish maqsadida, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5538-son [Farmoniga](#) muvofiq: ¹boshlang‘ich ta’limda “Tarbiya” fani orqali ajdodlar merosini o‘rgatishning umumiy salohiyat, bilimdonlik, ma’naviy va aqliy yetuklik, ma’naviy va jismoniy barkamolliksiz tarbiyalab bo‘lmashligini asoslashdan iborat. [69]

“Tarbiya” fani orqali o‘quvchilarda interfaol metodlardan foydalanishning uslubiy talablariga-ishlab chiqarish mezonlariga javob berishi kerak, ular quyidagilardan iborat:

- ✓ konseptuallik;
- ✓ izchillik;
- ✓ nazorat qilish qobiliyati;
- ✓ samaradorlik;
- ✓ takrorlanuvchanlik.

Tizimlilik pedagogik texnologiya tizimning barcha xususiyatlariga ega bo‘lishi lozimligini bildiradi:

- ✓ jarayonning mantiqiyligi,
- ✓ uning qismlarining o‘zaro bog‘liqligi, yaxlitligi.

Reproduktivlik - pedagogik texnologiyani bir xil turdagi boshqa ta’lim muassasalarida, boshqa fanlar tomonidan qo‘llash (takrorlash) imkoniyati.

- Mazkur qator vazifalarni hal etishga imkon beradi:

- o‘quvchilarda “Tarbiya” fanini o‘qitish orqali interfaol metodlardan foydalanishga doir bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalar bilan bog‘liqlikda qadriyatga yo‘naltirilgan ustanovka va barqaror motivlarni shakllantirish, tadqiq etilayotgan jarayonni tahlil etish va muayyan tuzatishlar kiritish; natijalarni baholash va tahlil etish.

Boshlang‘ich ta’limda tahsil oladigan o‘quvchilarning shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ulardagi shaxsiy komponentlarni shakllantirish bugungi kunda ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri bo‘lib, o‘quvchilarni o‘qitishda har bir fan doirasida pedagogik texnologiyalarni joriy qilish orqali samaradorlikka erishiladi². Shu nuqtai nazardan, pedagogik texnologiyalar hozirgi paytda muhim o‘rin egallaydi.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5538-son

² . Musurmonova O. Oila ma’naviyati-milliy g‘urur. - T. O‘qituvchi, 1997. - B.153

Xususan, bu borada ilmiy-nazariy yondashuvlarni tahlili tadqiqot ishining dolzarbligini ko'rsatib beradi.

Pedagogik texnologiyalarni joriy qilish, uning dars samaradorligini oshirishdagi vazifasi hamda ta'lim tizimidagi ahamiyati xususida rossiyalik olimlarning ilmiy yondashuvlarini tahlil qilish o'rinlidir.

F.Fradkinning bu borada aytgan quyidagi fikri muhim ahamiyat kasb etadi: "Bu o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining tizimli, kontseptual, me'yoriy, obyektiv, o'zgaras tavsifi, ta'lim maqsadiga erishishga qaratilgan

B.N.Monaxovning fikriga ko'ra, bu o'quv jarayonini loyihalash, tashkil etish va o'tkazish bo'yicha o'quvchilar hamda o'qituvchilar uchun so'zsiz qulay sharoitlar yaratish uchun har tomonlama o'ylangan qo'shma pedagogik faoliyat modelidir. Loyihalash deganda, dars jarayonlarida aniq bir loyihani tashkil etish orqali oxirida yuqori natijaga erishishga qaratilgan yaqin muddatli istiqbolli rejalar yig'indisidir[34].

V.P.Bespalkoning ta'rifi quyidagicha: "...pedagogik texnologiya ta'lim jarayonini amalga oshirishning mazmunli texnikasi"[55] deb hisoblaydi. Ta'rif pedagogik texnologiyadan faqat o'quv jarayonida foydalanishga qaratilgan. Bu esa ushbu tushunchaning pedagogik ta'rif sifatida keskin torayishi va undan amaliy pedagogik faoliyatda foydalanish imkoniyatlarini keltirib chiqaradi.

Rossiyalik olimlar L.G.Semushina, I.G.Varoshenko pedagogik texnologiyani asosiy ikki yo'nalishdan iboratligini ta'kidlashgan[52]: 1. O'quv mazmunini amalga oshirish usuli. 2. Belgilangan maqsadlarga samarali erishishni ta'minlaydigan shakllar, usullar va o'qitish vositalari tizimidir.

B.A.Slasteninining fikricha, Pedagogik texnologiyalar - Prognoz qilingan natijalarga erishishni ta'minlaydigan tartiblangan harakatlar to'plamidir[57].

M.V.Klarin pedagogik texnologiyani pedagogik maqsadlarga erishish uchun foydalaniladigan barcha shaxsiy, instrumental va uslubiy vositalarning tizimli to'plami va ishlash tartibi deb hisoblaydi [58].

C.V.Kulnevichning fikriga ko'ra, pedagogik texnologiya tushunchasini ta'lim nazariyasi, tarbiyaviy ish metodikasi va pedagogik mahorat kabi pedagogik kategoriyalar bilan bog'lashni zarur deb hisoblaydi.[60]

Bugungi kunda boshlang'ich ta'lim tizimida texnologik yondashuvni rivojlantirish dolzarb vazifalardan biriga aylanmoqda. Ta'lim berishning innovatsion texnologiyalarini ishlab chiqish, pedagogik jarayonga yondashuvni o'zgartirish sifatli ta'limning muhim omilidir. Qolaversa, uzuluksiz ta'limning moddiy-texnik bazasini modernizatsiyalashtirish bilan birga pedagoglarning fikrlash tarzini, darsga munosabatini va ta'lim berish metodikasini o'zgartirish vazifalari ham usutvor vazifalardan biriga aylanmoqda. Shu bois mazkur tadqiqot ishida tanlangan mavzuga texnologik yondashuvni qo'llash va bu orqali ishning ilmiy farazini isbotlash vazifalari yuklatilgan.


Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarining shaxsiy qobiliyatlarini shakllantirish orqali ham ajdodlar merosini chuqur anglab yetishiga erishish mumkin bo'ladi. Bu jarayonlarni loyiha asosida o'qitish texnologiyasini qo'llash orqali ham amalga oshirish samaraliroq bo'lib ular quyidagilarga qaratilgan:³

- ✓ o'quvchining shaxs sifatida o'zini o'zi anglashi to'g'risida;
- ✓ tug'ma "mustaqillikni" saqlash va mustahkamlash;
- ✓ mustahkamlash uchun "men o'zim", "men qilaman", "men mumkin".

Loyihaviy ta'lim texnologiyalar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining shaxsiy qobiliyatlarini shakllantirishdagi muhim omillarni ko'rib chiqildi, hamda shu asosida ajdodlar merosini o'qitishdagi muhim jihatlar haqida xulosa shakllantirildi.[98]

Boshlang'ich sinf "Tarbiya" darslarida o'quvchilarning shaxsiy qobiliyatlarni rivojlantirish orqali maqsadga erishish ta'minlanadi. Shuningdek, loyihaviy ta'lim texnologiyalarini tizimli tahlil qilish ham dolzarb masalalardan biridir. Loyiha faoliyatini baholash ikkita komponentni o'z ichiga oladi:⁴

- ✓ birinchi (yashirin pedagogik ta'sir) o'quvchining shaxsiy fazilatlarini shakllantirishga, o'rganishga bo'lgan motivatsiyani, fikrlashni va o'zini o'zi qadrlashni oshirishga, tanlov qilish va o'z faoliyatining oqibatlarini va natijalarini tushunishga yordam beradi;
- ✓ ikkinchisi (tugallangan loyiha) olingan ma'lumotlarning hajmini (nima o'rganilganligini), amalda qo'llashni (uni qanday ishlatishni, dizayn sifatini, loyihani taqdim etish sifatini (loyiha qanday himoyalangan) baholashga qaratilgan.



2.2.2-rasm Ta'lim texnologiyasining asosiy natijasi shakllanadigan kompetensiyalar.

³ Ananov. B.G. Chelovek kak predmet poznaniya - SPb.: Piter, 2001. - 288 s

⁴ Boshlang'ich sinf o'quvchilarini faollashtirishda o'zbek milliy-ma'naviy merosidan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari

Manba: E.V.Kolesnikova, V.Z.Midukov - Loyihaviy ta'lim texnologiyasidan foydalangan holda o'qitish nazariyasi va metodikasi: darslik - Tomsk: TSPU, 2007yil.

Ta'lim-tarbiya mazmunining ta'sirchanligi uning mohiyatini ochib berishga qaratilgan intellektual merosni tanlashda amal qiladigan tamoyillarga rioya etishni talab etadi. Aynan 3-4-sinflar uchun o'qish va "Tarbiya" fani dasturiga material tanlashda quyidagi omillarga asoslandi:[59]

- ✓ dastur mavzularining mohiyatini yoritishga xizmat qilgan materiallarning ilmiyligi, ixchamligi, qiziqarliligi, asosliligi, qo'llashga mosligi, ketma-ketligi, tarixiyli;
- ✓ o'quvchilarning ma'naviy ehtiyoji, talabi, qiziqishlarini qondira olishi;
- ✓ o'quvchilarning yoshi, sinfning umumiy saviyasiga mosligi;
- ✓ ilmiy va milliy xarakterni ifodalashi;
- ✓ o'quvchi faoliyati qamrovi;
- ✓ o'quvchi bilim saviyasi, mantiqiy fikr doirasining o'sishi, tarbiyasiga ta'siri;
- ✓ o'quvchini ruhiy va jismoniy zo'rqiqtirmaslik.

Eng muhim omil ta'lim mazmuni o'zining g'oyaviy yuksakligi va o'quvchilarda intellektual merosning yuksalishiga xizmat qilish darajasi bilan izohlanadi.

Ushbu omillar darslik va uslubiy qo'llanmalar, ajododlarimiz milliy-ma'naviy merosi hamda ularning tarbiyaviy ahamiyatini o'quvchi ongiga yetkaza oladigan ma'rifiy manbaalarni tanlashda ham amal qiladi. Bu o'z navbatida boshlang'ich sinf o'quvchilarining faolligini oshirishda dasturil amaldir.⁵

Tavsiya etilayotgan "Tarbiya" darsi andozasi mohiyati o'quvchida quyidagi asosiy masalalarni bilishga yo'naltiriladi:[63]

- ✓ milliy-ma'naviy merosning taraqqiyot bosqichlari, ularning asosiy belgilarining ko'rinishlarini;
- ✓ o'zbek xalqining milliy-ma'naviy merosi qirralari, manbaalarining o'zaro ta'siri va aks ta'sirini;
- ✓ o'zbek xalqining milliy-ma'naviy merosi rivojlanishi jihatidan zarur bo'lgan iymon, e'tiqod, insonparvarlik, yaxshilik, mehnatsevarlik va boshqa ma'naviy-ruhiy qadriyatlarini;
- ✓ insonni ilmiy jihatdan tubanlashtiruvchi (yovuzlik, jaholat, zo'rlik, yolg'onchilik, qabihlik) sifatlarini.[63]

Dars jarayonida timsollar tahlilini o'tkazish asarni qanday maqsad bilan o'qishga bog'liq. Biz tajriba sinflarida badiiy asarlarni intellektual meros sifatida o'rganishni ikki xilda, ya'ni sinfda asarning boblarini, epizodlarini, ma'lum sahifalarini o'qish va tahlil etish, ikkinchi usul o'qituvchi tomonidan asar mazmunini

⁵ Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq. www.ziyouz.com kutubxonasi.

ta'limiy va tarbiyaviy tomondan to'liq og'zaki hikoya qilish va asarni to'liq o'qib chiqish uchun topshirish shaklida olib bordik. Bu usul bilan ikki maqsad amalga oshirildi [53] Boshlang'ich sinf o'quvchilarni o'zbek milliy-ma'naviy merosi nuqtai nazaridan ko'proq she'rlar, hikoyalar, badiiy asardan parchalarni yuzaki emas, mazmun va mohiyatini anglagan holda o'qishga o'rgatish, o'z vaqtida barcha tur va janrlardagi asarlarni o'rganishga bir xil munosabatda bo'lishni ta'minlash (folklor, diniy manbaalar, mumtoz adabiyot, hozirgi zamon adabiyoti)[68].

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Shalyapina T.A. Organizatsionno-pedagogicheskie usloviya sotsializatsii shkolnikov v protsesse ekologicheskogo obrazovaniya: Dis. ... kand. ped. nauk: 13.00.01 – SPb., 2006. – 204 s.
2. Shirinov M.K. Ta'lim muassasalarini boshqarishda rahbarlik faoliyati (umumiy o'rta ta'lim maktablari misolida). // Zamonaviy ta'lim. 2015, №1. – 13-17 b.
3. Shibanova G.N., Shamova T.I., Davqdenko T.M. Upravlenie obrazovatel'noy sistemami. – M.: Vldos-Press, 2002. – 384 s.
4. Egamberdieva N.M. Madaniy-insonparvarlik yondashuv asosida talabalarni shaxsiy hamda kasbiy ijtimoiylashtirish nazariyasi va amaliyoti. Ped.f.dokt. ... diss.avt. – Toshkent: 2010, – B.17
5. Egamberdieva N. Talabalarni shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashtirishning zamonaviy yo'nalishlari / Uslubiy qo'llanma. – T.: "Fan va texnologiya", 2009. – 46 b.
6. Egamberdieva N. Talabalarni shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashtirish texnologiyasi / Uslubiy qo'llanma. – T.: "Fan va texnologiya", 2009. – 55 b.
7. Egamberdieva N. Ijtimoiy pedagogika: darslik – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2009. – 232 b.
8. Ernazarov D. Nodavlat notijorat tashkilotlarning ijtimoiy innovatsiyalarni rivojlantirishdagi ishtiroki. Yangilanayotgan jamiyatda yoshlarning ijtimoiy faolligi: muammo va yechimlar mavzuidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi maqolalar to'plami. – Toshkent: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2020. – 202-206 b.
9. Quronboyev Q. Talabalarining ma'naviy-ijtimoiy faolliklarini rivojlantirishning pedagogik asoslari (Yoshlar tashkilotlari misolida). Ped.f.n. ... yozilgan diss. –T.: 2000. – 155 b.